XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 7 - fevral VI-60-22-5-71-K/23 Karmana tuman hokimligi

Karmana tumanidagi 43 ta mahallalarning chizilgan chegaralari va chegaralari tavsiflangan chizmalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 16 avgustdagi “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-353-sonli qarorining 4-a bandida kadastr agentligi bilan birgalikda har bir mahallaning aniq chegaralari belgilanishini ta’minlash vazifasi belgilab berilgan. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli nizomiga muvofiq tuman hokimligiga mahalla fuqarolar yig‘inlarining Iltimosnomalari kiritilgan.

Mazkur Nizomning 30-31-bandlarida mahallalarning chegaralari chizilgan va chegaralar tasniflangan chizmalari Xalq deputatlari tuman Kengashining qarori bilan tasdiqlanishi belgilab qo‘yilgan.

Yuqoridagi masalalariga alohida e’tibor qaratish va ushbu yo‘nalishdagi vazifalarni jadallashtirish lozimligidan kelib chiqib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i G‘.Jumayev va Davlat kadastrlar palatasi Karmana tumani filiali boshlig‘i S.Aliqulovning bergan axboroti ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi 43 ta mahalla fuqarolar yig‘inlari tomonidan tuman hokimi nomiga tegishli tartibda Iltimosnoma kiritilganligi inobatga olinsin.

3. Tumandagi 43 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarining chizilgan chegaralari va chegaralar tasniflangan chizmalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.


4. Mahallalar chegaralarini o‘zgartirish tuman, shahar hokimining taklifi asosida, xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining alohida qarori bilan posyolkalar, qishloqlar, ovullar va shaharlar mahallalari fuqarolar yig‘inlari iltimosnomasi bo‘yicha amalga oshirilishi eslatib o‘tilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Boltayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi **F.Umarov**

Xalq deputatlari Karmana tuman Kengashining
2023 yil 7 fevraldagi
VI-60-22-5-71-K/23-son qaroriga
1-ilova

НАВОИЙ ВИЛОЯТИ КАРМАНА ТУМАНИ ХАРИТАСИ



№	Кўрсаткичлар	Туман бўйича	Кармана тумани			
1	2	3	Хоким 4	Прокурор 5	ИИБ 6	ДСИ 7
1	Маҳаллалар сони	43	11	9	8	15
2	Хонадонлар сони	8261	8261	7202	8418	11643
3	Оилалар сони	46811	10571	10326	9688	16226
4	Аҳоли сони	161686	34877	35457	34176	57176